

---

## Zulayho Mahkamova Rishton tumanidagi tadbirkor ayollar bilan uchrashdi

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi rahbari Zulayho Mahkamova Rishton tumanida bo'lib bu yerda tadbirkor ayollar bilan suhbatlashdi. Xususan, Zulayho Mahkamova boshchiligidagi delegatsiya vakillari A.Navoiy MFY hududida joylashgan, sobiq keramika zavodining bo'sh turgan bino-inshootlari negizida tadbirkor Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan chinni mahsulotlariga bezak berish sexida bo'lishib, bu yerdagi ishlar jarayonini ko'zdan kechirishdi. Bugungi kunda bu yerda 100 dan ortiq xotin-qizlar doimiy ish bilan ta'minlangan. Shuningdek, ishsiz mahalla ayollari ham kasanachilik asosida ishga jalb etib kelinmoqda. Rishton tumanidagi "MM Porcelain" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Muxayxon Sattorova 8 mart xotin-qizlar bayrami arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. Hunarmandlar oilasida kamolga yetgan Muhayyo Sattorova «MM PORCELAIN» MChJ shaklida oilaviy korxonada faoliyatiga asos solib, mahalliy xomashyodan turfa ko'rinish va bezakli chinni mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi, yuzlab mahalla xotin-qizlari uchun yangi ish o'rinlari yaratdi. Korxonadan o'tgan yil davomida Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlariga 791 ming AQSh dollari qiymatiga teng bo'lgan chinni buyumlari eksporti amalga oshirildi, xorijiy davlatlarda bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro ko'rgazmalarning faol ishtirokchisiga aylandi. Ayni kunda korxonada 300 ta doimiy ish o'rni yaratilgan. Shuningdek, 300 ta xonadonda mehnat qilayotgan 700 nafardan ortiq kasanachiga chinni buyumlarga bezak berish uchun mahsulot yetkazib berilmoqda. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi rahbari Zulayho Mahkamova chinni mahsulotlariga bezak berish sexidagi xotin-qizlar bilan suhbatlashdi. Suhbat davomida bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalanish, xotin-qizlar faollari tomonidan mahallalarda ijtimoiy ko'makka muxtoj ayollarni aniqlash, ularni kasbga, tadbirkorlikka yo'naltirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va faolligini oshirish, muammolarini o'z vaqtida aniqlashga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

2022-05-09 06:29:09